

Rustamboyev Islomjon Doniyor o'g'li
 Oriental universiteti Ijtimoiy-gumanitar fanlar
 kafedrasida katta o'qituvchisi
islomjonrustamboyev@gmail.com
 0009-0005-5400-1038

SAUDIYA ARABISTONINING O'ZBEKISTON MUSTAQILLIGINI E'TIROF ETISHI VA IKKI TOMONLAMA DIPLOMATIK ALOQALARNING O'RNATILISHI

Annotatsiya. Ushbu maqola O'zbekiston va Saudiya Arabistoni o'rtasidagi diplomatik aloqalarning shakllanishi, Saudiya Arabistoni delegatsiyasining 1992-yildagi rasmiy tashrif va uning tarixiy-siyosiy ahamiyatini yoritadi. Saudiya Arabistoni tashqi ishlar vaziri shahzoda Saud al Faysal boshchiligidagi delegatsiyaning tashrifi ikki davlat o'rtasida diplomatik, diniy va madaniy hamkorlikning mustahkamlanishiga xizmat qilgan. Maqolada o'zaro ishonch, islomiy qardoshlik va strategik sheriklik tamoyillari asosida shakllangan aloqalar tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: O'zbekiston, Saudiya Arabistoni, diplomatik munosabatlar, islom qardoshligi, tashqi siyosat, Saud al Faysal, rasmiy tashrif, diniy hamkorlik, madaniy aloqalar.

ПРИЗНАНИЕ САУДОВСКОЙ АРАВИЕЙ НЕЗАВИСИМОСТИ УЗБЕКИСТАНА И УСТАНОВЛЕНИЕ ДВУСТОРОННИХ ДИПЛОМАТИЧЕСКИХ ОТНОШЕНИЙ

Аннотация. Данная статья освещает формирование дипломатических отношений между Республикой Узбекистан и Королевством Саудовская Аравия, а также официальный визит саудовской делегации в 1992 году и его историко-политическое значение. Визит делегации во главе с министром иностранных дел Саудовской Аравии принцем Саудом аль-Фейсалом способствовал укреплению дипломатического, религиозного и культурного сотрудничества между двумя государствами. В статье анализируются отношения, сформировавшиеся на основе принципов взаимного доверия, исламского братства и стратегического партнёрства.

Ключевые слова: Узбекистан, Саудовская Аравия, дипломатические отношения, исламское братство, внешняя политика, Сауд аль-Фейсал, официальный визит, религиозное сотрудничество, культурные связи.

RECOGNITION OF UZBEKISTAN'S INDEPENDENCE BY SAUDI ARABIA AND ESTABLISHMENT OF BILATERAL DIPLOMATIC RELATIONS

Annotation. This article examines the formation of diplomatic relations between the Republic of Uzbekistan and the Kingdom of Saudi Arabia, as well as the official visit of the Saudi delegation in 1992 and its historical and political significance. The visit of the delegation led by Saudi Arabia's Minister of Foreign Affairs, Prince Saud al-Faisal, contributed to strengthening diplomatic, religious, and cultural cooperation between the two countries. The article analyzes relations that developed on the basis of mutual trust, Islamic brotherhood, and strategic partnership principles.

Keywords: Uzbekistan, Saudi Arabia, diplomatic relations, Islamic brotherhood, foreign policy, Saud Al-Faisal, official visit, religious cooperation, cultural ties.

Kirish. O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishganidan so'ng tashqi siyosatning ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida musulmon davlatlari bilan o'zaro manfaatli hamkorlik aloqalarini rivojlantirish masalasiga alohida e'tibor qaratildi. Bu jarayonda Saudiya Arabistoni Qirolligi bilan o'rnatilgan diplomatik munosabatlar nafaqat siyosiy va iqtisodiy hamkorlik, balki tarixiy, diniy va madaniy mushtaraklikka asoslangan aloqalarning rivojlanishida muhim o'rin

tutdi. Har ikki davlatni islom dini, umumiy ma'naviy qadriyatlar hamda musulmon sivilizatsiyasining boy merosi birlashtirib turadi.

Saudiya Arabistoni O'zbekiston mustaqilligini birinchilar qatorida tan olgan davlatlardan biri bo'lib, ikki mamlakat o'rtasidagi rasmiy diplomatik munosabatlarning yo'lga qo'yilishi O'zbekistonning xalqaro maydondagi nufuzini mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etdi. Ayniqsa, 1992-yilda Saudiya Arabistoni tashqi ishlar vaziri shahzoda Saud al-Faysal boshchiligidagi delegatsiyaning O'zbekistonga tashrifi ikki tomonlama munosabatlar tarixida muhim siyosiy voqea sifatida e'tirof etiladi. Mazkur tashrif davomida diplomatik munosabatlarni o'rnatish to'g'risidagi protokolning imzolanishi kelgusidagi siyosiy, iqtisodiy, diniy va madaniy hamkorlik uchun mustahkam huquqiy asos yaratdi.

Mavzuning dolzarbligi shundaki, bugungi kunda O'zbekiston va Saudiya Arabistoni o'rtasidagi munosabatlar strategik sheriklik darajasiga ko'tarilib, siyosiy muloqot, investitsiyaviy hamkorlik, ziyorat turizmi, ta'lim va madaniyat sohalarida izchil rivojlanib bormoqda. Ushbu hamkorlikning tarixiy ildizlarini o'rganish va diplomatik aloqalarning shakllanish jarayonini ilmiy jihatdan tahlil qilish zamonaviy xalqaro munosabatlarni tushinishda muhim nazariy va amaliy ahamiyatga ega.

Mazkur maqolaning maqsadi O'zbekiston va Saudiya Arabistoni o'rtasidagi diplomatik munosabatlarning shakllanish tarixini, xususan 1992-yildagi rasmiy tashrifning siyosiy va tarixiy ahamiyatini manbalar asosida tahlil qilishdan iborat. Shuningdek, ikki davlat o'rtasidagi hamkorlikning dastlabki bosqichlari, o'zaro ishonch va islomiy qardoshlik tamoyillarining diplomatik aloqalar rivojidadagi o'rni yoritiladi.

O'zbekiston va Saudiya Arabistoni o'rtasidagi diplomatik munosabatlar masalasi mustaqillik yillarida yaratilgan ilmiy va publitsistik adabiyotlarda qisman yoritilgan. Mavzuni tadqiq etishda O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimovning asarlari muhim nazariy manba bo'lib xizmat qiladi. Ularda mustaqil O'zbekiston tashqi siyosatining ustuvor yo'nalishlari, musulmon davlatlari bilan hamkorlik va xalqaro munosabatlar masalalari yoritilgan.

Saudiya Arabistonining siyosiy taraqqiyoti va tashqi siyosatini o'rganishda S. Inog'omovning "Saudiya Arabistoni Podshohligi" asari hamda J. Wynbrandtning "A Brief History of Saudi Arabia" tadqiqoti muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, "Xalq so'zi" gazetasining 1992-yil fevral sonlari Saudiya Arabistoni delegatsiyasining O'zbekistonga tashrifi va ikki davlat o'rtasida diplomatik munosabatlar o'rnatilishiga oid birlamchi manba sifatida alohida qimmatga ega.

Mazkur manbalar O'zbekiston–Saudiya Arabistoni munosabatlarining dastlabki bosqichlarini yoritishga xizmat qilsa-da, 1992-yildagi rasmiy tashrifning tarixiy-siyosiy ahamiyati alohida tadqiqot obyekti sifatida yetarli darajada o'rganilmagan.

Mazkur tadqiqotni amalga oshirishda tarix fanining ilmiylik, xolislik va tarixiylik tamoyillariga tayanildi. Tadqiqot jarayonida O'zbekiston va Saudiya Arabistoni o'rtasidagi diplomatik munosabatlarning shakllanish tarixini o'rganishda kompleks yondashuv qo'llanildi.

Maqolada tarixiy-qiyosiy usul yordamida ikki davlat o'rtasidagi munosabatlarning vujudga kelish omillari va rivojlanish bosqichlari tahlil qilindi. Tarixiy-xronologik metod asosida 1991-1992 yillarda yuz bergan siyosiy voqealar izchil ketma-ketlikda yoritildi. Manbashunoslik usuli orqali rasmiy hujjatlar, davriy matbuot materiallari, davlat arboblarning nutqlari va memuar adabiyotlar tahlil qilinib, ularning ilmiy qimmatini baholandi.

1991-yilda O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgach, yangi siyosiy yo'nalishda xalqaro hamkorliklarni rivojlantirish, ayniqsa, musulmon dunyosi bilan munosabatlarni mustahkamlash davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Ana shu jarayonda Saudiya Arabistoni bilan o'rnatilgan diplomatik munosabatlar va ikki tomonlama aloqalar milliy tariximizda muhim voqea bo'lib qoldi.

Sobiq sovet imperiyasi parchalanganidan keyin, aksariyat arab mamlakatlari kabi, Saudiya Arabistoni ham O'zbekistonning davlat mustaqilligini birinchilar qatorida 1991-yilning dekabrda rasman e'tirof etdi va o'zaro diplomatik munosabatlar o'rnatish istagini bildirdi[6, 115-b]. Ikki xalq o'rtasidagi tarixiy aloqalar va mushtarak qadriyatlar birligi hamkorlikning boshlash uchun zamin yaratib berdi.

Shuningdek, mustaqillikning dastlabki yillarida yurtimizni: dunyoning oʻttiz mamlakati Oʻzbekiston Respublikasini tanidi, tan oldi. Turkiya, Amerika Qoʻshma Shtatlari, Kanada, Yaponiya, Buyuk Britaniya, Saudiya Arabistoni, Eron, Pokiston, Hindiston, Xitoy singari yirik davlatlar ana shular jumla sidandir. Bu ishonch ruhimizni koʻtardi, kelajakka yoʻlimizni ochib berdi [5, 289-b]. Oʻzbekiston respublikasi mustaqillikning ilk onlaridanoq dunyoning yetakchi davlatlari qatorida arab dunyosidagi yetakchi mamlakatlar ham yurtimiz bilan diplomatik munosabatlar oʻrnatib yaxshi hamkorlik aloqalar yoʻlga qoʻyishga harakat boshlashgan edi.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov nomiga Saudiya Arabistoni qiroli Fahd ibn Abdul Aziz al Saud tomonidan yoʻllangan tabrik maktubi ikki davlat oʻrtasidagi ilk samimiy munosabatlarning yuzaga kelganini koʻrsatadi. Maktubda shunday soʻzlar bitilgan:

“Birodarim Islom Karimov janobi oliylariga!

Oʻzbekiston Respublikasining muhtaram Prezidentiga!

Sizga eson-omonlik, Allohning marhamati va siylovi yor boʻlgʻay! Qardosh Oʻzbekiston Respublikasi mustaqillikka erishganligi munosabati bilan shaxsan Sizga va Oʻzbekiston xalqiga chin qalbdan tabrik yoʻllayotganimdan hamda musulmon millati muammolarini hal etishning mustahkam tayanchi va barqarorlikni taʼminlashning ajralmas qismi boʻlmish Sizning mamlakatingizga samimiy tilaklarimni yoʻllayotganimdan gʻoyat mamnunman”[7, 1-2 b]. Qirol, shu bilan birga, Saudiya Arabistoni tashqi ishlar vaziri shahzoda Saud al Faysal al Saudning Oʻzbekistonga tashrifi doirasida ushbu maktubni shaxsan yetkazishini ham maʼlum qilgan.

1992-yilning fevralida Saudiya Arabistoni Tashqi ishlar vaziri shahzoda Saud al-Faysal ibn Abdulaziz Ol Saudning Oʻzbekistonga tashrifi boʻlib oʻtdi, Tashrif chogʻida mamlakatlarimiz oʻrtasida elchixonalar darajasida diplomatik munosabatlar oʻrnatish toʻgʻrisida protokol imzolandi [6, 115-b]. Bu voqea ikki davlat oʻrtasida rasmiy aloqalarning yangi bosqichini boshlab berdi.

1992-yil 19-fevral kuni Prezident Islom Karimov Saudiya Arabistoni delegatsiyasini qabul qildi. Suhbat davomida Prezident respublikamizdagi siyosiy-iqtisodiy vaziyat, mustaqillikdan keyingi davlat siyosati va xalqaro aloqalar haqida batafsil maʼlumot berdi. Shu bilan birga, u achinch bilan quyidagini taʼkidladi: “hozircha Saudiya Arabistoni bilan aloqamizni koʻngildagidek deb boʻlmaydi. Buning esa, ochiq aytish kerak, maʼlum sabablar bor: shu paytgacha sizlarni bizga nuqul yomonlab kelishardi, oʻz navbatnda sizlarda ham biz haqimizda yolgʻon-yashiq gaplar tarqatishgan. Bu – har ikkala davlat oʻrtasiga nizo solish uchun qilinardi, albatta.

Mana endi oramizga hech kim nifoq sololmaydi, endi Oʻzbekiston bilan Saudiya Arabistoni oʻrtasida mustahkam birodarlik aloqalari oʻrnatiladi, deb ishonaman. Sizning tashrifingizni ana shu jabhadagi ilk qadam deb hisoblayman, Nasib etsa, biz ham yurtigingizga borib, xalqingiz bilan, sizlarda amalga oshirilayotgan ezgu ishlar bilan yaqindan tanishishga muyassar boʻlamiz” [8, 1-2 b]. Bu soʻzlar ikki davlat oʻrtasidagi oldingi tarixiy noaniqliklar va yolgʻon axborotlarni bartaraf etish zaruratini aks ettiradi.

Shahzoda Saud al Faysalning tashrifi juda katta siyosiy ahamiyatga ega boʻlib, ikki tomonlama diplomatik munosabatlarning boshlanish nuqtasi boʻldi. 1992-yil 20-fevral kuni Saudiya Arabistoni tashqi ishlar vaziri Oʻzbekiston tashqi ishlar vaziri U. Abdurazzoqov bilan uchrashdi. Uchrashuvda muhim kelishuvlarga erishildi. Shu kuni ikki davlat oʻrtasida oʻzaro diplomatik munosabatlar oʻrnatish, Ar-Riyod shahrida Oʻzbekiston Respublikasi elchixonasini, Toshkentda Saudiya Arabistoni elchixonasini ochish haqidagi hujjatga qoʻl qoʻyildi.

Shuningdek, Saudiya Arabistoni rasmiy delegatsiyasi 20-fevral kuni Oʻrta Osiyo musulmonlari diniy boshqarmasiga tashrif buyurdi. Boshqarma raisi, muftiy Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf mehmonlarga quyidagicha soʻz qildi: “Oʻzbekiston mustaqil respublika deb eʼlon qilingandan keyin dinga katta eʼtibor berilayotganligi, respublika musulmonlarining chet ellardagi birodarlari bilan aloqalari mustahkamlanib borayotganligi toʻgʻrisida” axborot berdi [8, 1-2 b]. Uchrashuv musulmon dunyosidagi oʻzaro qardoshlik, maʼnaviy yaqinlik va diniy hamjihatlikni yanada mustahkamlashga xizmat qildi.

Shahzoda Saud al Faysal al Saud nafaqat Saudiya Arabistoni tashqi ishlar vaziri, balki jahondagi eng nufuzli diplomatlardan biri hisoblanar edi. U 1942-yilda tugʻilgan, Prinston universitetining iqtisod fakultetini tamomlagan. Neft siyosati va xalqaro munosabatlarda katta tajribaga ega boʻlgan. Saudiyadagi eng nufuzli siyosat arboblardan biri Saudiya delegatsiyasiga

28 faqat eng muhim xalqaro va arablararo anjumanlarda rahbarlik qiladi. Aynan uning yetakchiligidagi delegatsiya O'zbekiston bilan diplomatik munosabatlarni yo'lga qo'ydi va strategik sheriklik asoslarini mustahkamladi.

1992-yildagi Saudiya Arabistoni rasmiy delegatsiyasining tashrifi va unda erishilgan kelishuvlar O'zbekiston tashqi siyosatining yangi davrini boshlab berdi. Bu tashrif nafaqat ikki davlat o'rtasidagi diplomatik aloqalarning, balki islomiy qardoshlik, madaniy va ma'naviy yaqinlikning ham ramziy ifodasi bo'ldi.

“Sizlarni xorijiy mamlakatning rasmiy delegatsiyasi a'zolari emas, balki o'z qardoshlarimiz va do'stlarimiz deb hisoblayman” [8, 1-2 b] dedi suhbat so'ngida O'zbekiston respublika prezidenti Islom Karimov.

O'zbekiston va Saudiya Arabistoni o'rtasidagi diplomatik aloqalarning shakllanishi, ayniqsa 1992-yildagi shahzoda Saud al Faysal boshchiligidagi delegatsiyaning O'zbekistonga rasmiy tashrifi, ikki davlat tarixida yangi bosqichni boshlab berdi. Bu tashrif orqali ikki tomonlama munosabatlarning asosiy tamoyillari o'zaro hurmat, ishonch, diniy va madaniy yaqinlik mustahkamlandi. Tashrif davomida erishilgan kelishuvlar nafaqat siyosiy aloqalarni rivojlantirishga, balki islomiy qardoshlik va strategik sheriklikning mustahkam asoslarini yaratishga xizmat qildi. O'zbekistonning mustaqillik davridagi ilk tashqi siyosiy qadamlaridan biri sifatida bu voqea nafaqat tarixiy, balki hozirgi kundagi hamkorlikning ham poydevori bo'lib qolmoqda. Shu bois, O'zbekiston va Saudiya Arabistoni munosabatlari mintaqaviy barqarorlik va islom ummatidagi birlikni mustahkamlashda muhim rol o'ynaydi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston va Saudiya Arabistoni o'rtasidagi diplomatik munosabatlarning shakllanishi mustaqillikning dastlabki yillarida O'zbekiston tashqi siyosatining muhim yo'nalishlaridan biri bo'lgan. Saudiya Arabistonining O'zbekiston mustaqilligini ilk bo'lib tan olgan davlatlardan biri sifatida e'tirof etishi va 1992-yilda shahzoda Saud al-Faysal boshchiligidagi delegatsiyaning Toshkentga tashrifi ikki davlat o'rtasidagi hamkorlikning huquqiy va siyosiy asoslarini yaratdi.

Mazkur tashrif natijasida diplomatik munosabatlar rasman o'rnatilib, elchixonalar ochish to'g'risidagi kelishuvlarga erishildi. Shu bilan birga, uchrashuvlar davomida o'zaro ishonch, islomiy qardoshlik, madaniy va ma'naviy yaqinlik tamoyillari ikki tomonlama munosabatlarning muhim omili sifatida namoyon bo'ldi.

Xulosa qilib aytganda, 1992-yildagi rasmiy tashrif O'zbekiston va Saudiya Arabistoni munosabatlari tarixida muhim burilish nuqtasi bo'lib, bugungi kunda siyosiy, iqtisodiy, diniy va madaniy hamkorlikning rivojlanishi uchun mustahkam poydevor yaratdi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Каримов И.А. Ватан саждагоҳ каби муқаддасдир. – Тошкент: Ўзбекистон, 1996. – 278 б.
2. Каримов И.А. Бунёдкорлик йўлидан. – Тошкент: Ўзбекистон, 1996. – 349 б.
3. Каримов И.А. Янгича фикрлаш ва ишлаш — давр талаби. – Тошкент: Ўзбекистон, 1997. – 384 б.
4. Каримов И.А. Хавфсизлик ва барқарорлик йўлида. – Тошкент: Ўзбекистон, 1998. – 429 б.
5. Ислом Каримов. Ўзбекистон мустақилликка эришиш оstonасида —Т.: «Ўзбекистон», 2011.
6. Солих Иноғомов. Саудия Арабистони Подшоғлиги. Тошкент. “Фан”. 1998 йил.
7. Ҳалқ сўзи. 1992 йил 22 февраль. Шанба. 39-сон.
8. Ҳалқ сўзи. 1992 йил 21 февраль. жума. 38-сон.
9. A Brief History of Saudi Arabia, Second Edition Text copyright 2010, 2004 by James Wynbrandt; foreword by Fawaz A. Gerges